



№ 59

2026 yil «16» «fevral»

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Bank boshqaruvining 2025-yil 13-noyabrdagi 649-sonli qarori bilan “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibi (ichki ro‘yxat raqami: 666, 2025-yil 14-noyabr) tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhitini va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmonining 6-bandiga asosan 2026-yil 1-yanvardan boshlab davlat xaridlarida raqobatli usul orqali ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning “taklif so‘rovi” yangi tartib-taomilini joriy etish belgilangan hamda davlat buyurtmachilari tomonidan “taklif so‘rovi” orqali xarid qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxati tasdiqlangan.

Mazkur Farmon talablaridan kelib chiqqan holda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibiga davlat xaridlarida raqobatli usul orqali ayrim turdagi tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilishning “taklif so‘rovi” yangi tartib-taomilini joriy etish bilan bog‘liq tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish zarurati vujudga kelgan.

Shu munosabat bilan, Xaridlarni tashkil etish xizmati tomonidan tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan kelishilgan holda, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibiga (ichki ro‘yxat raqami: 666, 2025-yil 14-noyabr) tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar loyihasi ishlab chiqilib, tasdiqlash uchun o‘rnatilgan tartibda Boshqaruv muhokamasiga kiritilgan.

Bank boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomning 21-bandiga asosan, Bankning ichki hujjatlarini tasdiqlash va ularga o‘zgartirishlar kiritish Bank boshqaruvi vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib Bank boshqaruvi

QAROR QILADI:

1. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibiga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Xaridlarni tashkil etish xizmati (A.Axmadjonov) mazkur Tartibga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlangandan so'ng:

bir kunlik muddat ichida hujjat (asli)ni ro'yxatdan o'tkazish uchun Yuridik departamentga taqdim etilishini;

ro'yxatdan o'tkazilgan hujjat nusxasini ishda foydalanish va unga qat'iy rioya qilish uchun tegishli tarkibiy bo'linma va bank tarmoqlariga yetkazilishini;

Bank tizimida tovar (ish, xizmat)lar xaridlarini ushbu Tartib qoidalari asosida amalga oshirilishini ta'minlasin.

3. Yuridik departament (U. Aminova) mas'ul tarkibiy bo'linma tomonidan taqdim etilgan Tartibga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazilishini va nusxasini qonunchilikda belgilangan muddatda Markaziy bankka taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Bank boshqaruvi Raisining birinchi o'rinbosari A. Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi	IMZOLANGAN	A.Akbarjonov
Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari	IMZOLANGAN	A.Ergashev
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	Sh.Yakubov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	D.Umarov
Boshqaruv Raisi o'rinbosari	IMZOLANGAN	S.Abduvaliev
Risk bosh direktori	IMZOLANGAN	Y.Gorohov
Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori	IMZOLANGAN	A.Xujamuratov

Kiritildi:

Xaridlarni tashkil etish xizmati Xizmati rahbari v.v.b.	IMZOLANGAN	A.Akhmadjonov
--	-------------------	---------------

Kelishuvchilar:

Yuridik departament Yuridik departament direktori v.v.b.	KELISHILDI	U.Aminova
--	-------------------	-----------



<https://hujjat.sqb.uz/?pin=hR55xY76&id=664ec4ca-d4f9-45d7-bc51-9bed23bbfb7c>



“O‘ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
“UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK” JOINT-STOCK COMMERCIAL BANK
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК “УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК”

O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, 100000, Shahrissabz ko‘chasi, 3-uy
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

TARTIB

Yuridik departament
Korporativ va ichki hujjatlar
ekspertizasi xizmatida
2026-yil 17 fevral da
666-1 -son bilan

“RO‘YXATGA OLINGAN”



“O‘zsanootqurilishbank” ATB
Boshqaruvining
2026-yil 17 fevral dagi
666-1 -son qaroriga

ILOVA

“O‘zsanootqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish tartibiga
(ichki ro‘yxat raqami: 666, 14.11.2025-yil) kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-sonli “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta‘minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 25-iyuldagi PQ–332-son “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 21-avgustdagi PQ–4812-son “Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 10-iyuldagi PQ–249-son “Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlari ishtirokini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2024-yil 3-dekabrda PQ–417-son “Davlat xaridlarida ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” nizom, 2025-yil 30-iyuldagi 476-son “Davlat xaridlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish hamda davlat xaridlari elektron tizimi operatorlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2025-yil 24-fevraldagi 108-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini korporativ bank kartalari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 916, 2000-yil 5-aprel), Korporativ buyurtmachilarning xarid komissiyalari tomonidan dastlabki malaka tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom (ro‘yxat raqami 3324, 2021-yil 9-oktabr) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, “O‘zsanootqurilishbank” ATBda (keyingi o‘rinlarda — Bank) xaridlarni amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish qoidalarini belgilaydi.”

2. 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Bank xizmatlari ofisi tomonidan mazkur Tartibning 2-ilovasiga muvofiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri, Tartibning 2a-ilovasiga muvofiq taklif so‘rovi orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridi bo‘yicha shartnomalar tuzilishi mumkin.”.

3. Quyidagi mazmundagi 27¹-band bilan to‘ldirilsin:

“27¹. Xarid komissiyasining “Taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish bo‘yicha vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

“taklif so‘rovi” e‘lon matnini e‘lon berilishidan avval muhokamadan o‘tkazish;

e‘lon mazmuni bo‘yicha taklif va e‘tirozlar bildirish;

e‘lon matnini ma‘qullash yoki qayta ishlash uchun mas‘ul bo‘linmaga qaytarish;

“taklif so‘rovi” bo‘yicha kelib tushgan takliflar va (yoki) ofertalarni ko‘rib chiqish, solishtirish va baholash;

baholash natijalariga ko‘ra eng maqbul taklifni aniqlash, g‘olibni belgilash hamda tegishli bayonnoma rasmiylashtirish.”.

4. Quyidagi mazmundagi 10¹-bob bilan to‘ldirilsin.

“10¹-bob. “Taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish

71¹. Bank tizimida “taklif so‘rovi” tartib-taomili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro‘yxat asosida amalga oshiriladi.

71². “Taklif so‘rovi” orqali xaridlarni amalga oshirish uchun tashabbuskor bo‘linmalar Tartibning 11-bandiga muvofiq tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi va xaridni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘linmaga taqdim etadi.

71³. Mas‘ul bo‘linma:

“taklif so‘rovi” e‘lon loyihasini belgilangan tartibda ishlab chiqib xarid komissiyasiga muhokama uchun taqdim etadi;

“taklif so‘rovi” e‘lon matnini xarid komissiyasi muhokamasiga taqdim etishdan avval Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga e‘lon matnidagi raqobatni cheklashga olib keladigan omillarni o‘rganib chiqish uchun taqdim etadi. Bunda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan 3 ish kuni ichida belgilangan tartibda kontragentlar o‘rganib chiqilishi va o‘z xulosasini mas‘ul bo‘linmaga taqdim etilishi lozim;

xarid komissiyasi tomonidan ma‘qullangan e‘lon matnini amaldagi qonunchilik normalariga binoan belgilangan muddatlarda davlat xaridlari elektron tizimiga to‘g‘ri joylashtiradi va yuritadi;

jarayon bo‘yicha tashkiliy-texnik ko‘mak ko‘rsatadi.”.

5. 2-ilova mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalarning 1-ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

6. Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalarning 2-ilovasiga muvofiq tahrirda 2a-ilova bilan to‘ldirilsin.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni
amalga oshirish tartibiga kiritilayotgan
o‘zgartirish va qo‘shimchalarga
1-ILOVA

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
xaridlarni amalga oshirish tartibiga
2-ILOVA

**Bank xizmatlari ofisi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar
bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)**

RO‘YXATI

1. Yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.
2. Narxi (tarifi) davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.
3. Davlat buyurtmachisi faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmat safarlari va boshqa hollar uchun chiptalarning davlat xaridi (avia, temir yo‘l va yo‘nalishli transportiga), shuningdek yashash xarajatlari.
4. Boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko‘rsatish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, yetkazib beruvchi tomonidan avval olib kelingan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) kafolat muddati tugaganidan keyin va joriy xizmat ko‘rsatish (ehtiyot qismlarni xarid qilish), shuningdek avval xarid qilingan dasturiy mahsulotni kuzatish va (yoki) uni funksiyaviy jihatdan kengaytirish.
5. Favqulodda hollarda tabiat hodisalari, epidemiyalar va kasalliklar tarqalishining oldini olish yoki uning oqibatlarini bartaraf etish uchun zarur tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanadigan davlat xaridi.
6. Tabiiy ofatlarning va texnogen halokatlarning oqibatlarini tezkor bartaraf etish, shuningdek davlat buyurtmachisining to‘laqonli faoliyat olib borishiga ta‘sir ko‘rsatadigan tarzda kommunikatsiyalar, mexanizmlar, jihozlar va boshqa asbob-uskunalar ishdan chiqqan hollarda avariylarni bartaraf etish uchun tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi.
7. O‘zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilaridan yoki ularning rasmiy dilerlaridan va distribyutorlaridan xarid qilinadigan yangi avtotransport vositalarining, maxsus va qishloq xo‘jaligi texnikasining davlat xaridi.
8. Qo‘shimcha ishlarni va xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnoma umumiy boshlang‘ich summasining 10 foizidan oshmaydigan miqdordagi xarajatlar.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, chet davlatlar va hukumatlar rahbarlarining, shuningdek parlament a‘zolarining va xalqaro tashkilotlar rasmiy delegatsiyalarining tashriflari munosabati bilan yashash, ovqatlanish, madaniy tadbirlarni tashkil etish hamda o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, transport xarajatlari, suvenirilar, sovg‘alar xaridi va boshqa tashkiliy masalalar uchun nazarda tutilgan xarajatlar.

10. Fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va davolash, shu jumladan jarrohlik amaliyoti va reabilitatsiya yordami bilan bog'liq xarajatlar.

11. Avval tuzilgan shartnomalardagi yetkazib beruvchilar bilan aloqa, internet va teleradiouzatish xizmatlari bo'yicha davlat xaridi.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida xaridlarni
amalga oshirish tartibiga kiritilayotgan
o‘zgartirish va qo‘shimchalarga
2-ILOVA

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida
xaridlarni amalga oshirish tartibiga
2a-ILOVA

**Bank xizmatlari ofisi tomonidan taklif so‘rovi orqali xarid
qilinishi mumkin bo‘lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)**

RO‘YXATI

1. Sport, madaniy-ommaviy tadbirlar, ko‘rgazmalar, yarmarkalar, anjumanlar, seminarlar va o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish hamda o‘tkazish uchun binolar, inshootlar va asbob-uskunalarni ijaraga olish.
2. Ommaviy axborot vositalarida matbuot anjumani, brifing, mavzuli teleko‘rsatuv va boshqa tadbirlarni o‘tkazish, reklama joylashtirish, maqola chop etish.
3. Turar yoki noturar joyni (inshootni) xarid qilish yoki ijaraga olish, shuningdek, uning ta‘minoti bo‘yicha ekspluatatsiya xarajatlari.
4. Davriy nashrlar (gazetalar, jurnallar)ga, shu jumladan, ularning elektron variantlariga obuna bo‘lish.
5. Benzin, suyultirilgan va siqilgan gaz, dizel yonilg‘isi va ko‘mir mahsulotlari hamda elektr energiyasi manbalarida harakatlanuvchi transport vositalarini quvvatlantiruvchi elektr energiyasi.
6. Maxsus va xizmat avtotransporti vositalarini ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar.
7. Xalqaro va davlatlararo darajadagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar.
8. O‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, cho‘llanishga qarshi kurashish agentligi tizimidagi tashkilotlar va botanika bog‘lari hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan yetishtirilgan ko‘chat va nihollar, shuningdek ularni parvarish qilish bo‘yicha xizmatlar.”

**Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari:**



D.Umarov

№ 5

2026 yil «2» «fevral»

kelishuvchilar: N.Davletov, O.Abduraximov, F.To‘rayev, O.Ekler, Sh.Ismoilov, D.Shamirzayev,
A.Yoqubjonov, D.Mamadaliyev, A.Xujamuratov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=oS32tM12&id=a9d53e74-fe9f-410c-b377-d03936c20e3b>